



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 02 | pp. 409-415 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### DAVLAT SEKTORIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH



**Komiljonov Farmonbek Qodirjon o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat sektorida moliyaviy natijalar auditini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, xalqaro standartlar, jumladan, Xalqaro Davlat Sektori Hisob Standartlari (IPSAS)ni joriy etish jarayonlari, ichki audit xizmatlarining samaradorligini oshirish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, milliy va xalqaro tajribalar asosida davlat sektorida audit tizimini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** davlat sektori, moliyaviy audit, ichki audit, IPSAS, shaffoflik, O'zbekiston, moliyaviy nazorat, audit islohotlari.

#### Kirish

Audit – korxonada, firma, kompaniyalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib borish, ular hisobotini ekspertizadan o'tkazishdir. Auditning asosiy vazifasi moliyaviy hisobotga ishonch xosil qilishdan iborat. Rahbariyat va auditorning mas'uliyati moliyaviy hisobotga ishonchni ta'minlashdan iborat. Auditorlik tekshiruv natijasida auditor moliyaviy hisobotdagi ma'lumot qiymatini oshiradi va shu bilan birga auditor rahbariyat tomonidan taqdim etilgan boshqa ma'lumotga bo'lgan ishonchni ham oshiradi.

Kompaniyalarda yillik buxgalteriya hisobi jarayoni tugashi bilan, auditorlik tekshiruv ishleri boshlanib hisob-kitoblarining haqiqiyliigi va ularning amaldagi qonunchilikka muvofiq yuritilganligi sifatini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Buxgalteriya hisobi - xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hujjatlarida aks ettirish, hisobotni saqlash, moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishga ma'suldir. Buxgalterlik firmalari korxonada tomonidan ularning pul muomalalarini yuritilishini olib boradi. Bu biznesni tushunadigan tildir, chunki u tadbirkorlik sub'ektining moliyaviy hisobotini taqdim etish vositasidir.

Audit - bu moliyaviy hisobotni tekshirish va baholash faoliyati. Korxonaning buxgalteriya xodimlari tomonidan tayyorlangan moliyaviy hisob-kitob operatsiyalarining haqiqiyliigini tekshirish va tasdiqlashga qaratilgan. Shunday qilib, u buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining haqiqiyliigi va ishonchliligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3946-son

Qarori [2], 2021-yil 27-avgustdagi “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6300-son Farmoni [3], 2022-yil 14-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-128-son [4] Qarori shular jumlasidandir.

Oliy audit organlarining xalqaro standartlari (ISSAIs) davlat sektorida moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish maqsadida Oliy audit institutlari xalqaro tashkiloti (INTOSAI) tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu standartlarning maqsadi mamlakatlarning eng yuqori auditorlik organlariga ular qabul qilgan vakolatlarga, shuningdek, mahalliy normativ hujjatlarga muvofiq nazorat faoliyatiga o‘zlarining professional yondashuvlarini ishlab chiqishda uslubiy yordam ko‘rsatishdan iborat.

Standartlar davlat sektorida nazorat faoliyatini takomillashtirish maqsadida INTOSAI tomonidan tasdiqlangan barcha hujjatlarni o‘z ichiga oladi. Ular to‘rt darajada tuzilgan:

- “- birinchi daraja - INTOSAI tizimini shakllantirish tamoyillari;
- ikkinchi daraja (ISSAIs 10-99) - oliy nazorat organlari faoliyatining asoslari. Ular oliy moliyaviy nazorat organlarining samarali faoliyatining asosiy shartlarini ochib beradi;
- uchinchi daraja (ISSAIs 100-999) - auditning asosiy tamoyillari. Standartlar davlat sektori tashkilotlarining nazorat faoliyatini amalga oshirish asoslarni o‘z ichiga oladi [5];
- to‘rtinchi daraja (ISSAIs 1000-2999) - audit bo‘yicha qo‘llanma (ushbu darajadagi hujjatlar)” [7].



1-rasm. Audit standartlari mohiyati<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

## Tadqiqot metodologiyasi

Davlat sektorida moliyaviy natijalar auditini rejalashtirish va tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilishda mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

## Tahlil va natijalar

Davlat moliyaviy boshqaruvi tizimining samaradorligi va shaffofligi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishining muhim omillaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda. Xususan, 2020–2024-yillarga mo'ljallangan Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish strategiyasi qabul qilinib, bu strategiya doirasida davlat moliyaviy boshqaruvini xalqaro standartlarga moslashtirish, ichki audit xizmatlarini rivojlantirish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish kabi yo'nalishlar belgilangan.


Biroq, mavjud audit tizimida hali ham muammolar saqlanib qolmogda. Masalan, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasida davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi standartlarini joriy etish (IPSAS) rejalashtirilgan bo'lsa-da, bu jarayon hali to'liq yakunlanmagan. Shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari xodimlarining moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash hamda boshqarish bo'yicha savodxonligini oshirish zarurati mavjud.

Ushbu maqolada davlat sektorida moliyaviy natijalar auditini takomillashtirishning ilmiy asoslari, xalqaro tajribalar va O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ichki va tashqi audit tizimlarining samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash va davlat moliyaviy boshqaruvini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Davlat sektorida moliyaviy natijalar auditini takomillashtirish bo'yicha xalqaro tajribalar va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarga mos keluvchi audit tizimlarini joriy etish davlat moliyaviy boshqaruvining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, Xalqaro Davlat Sektori Hisob Standartlari (IPSAS) davlat moliyaviy hisobotlarini xalqaro talablarga moslashtirishda asosiy vosita hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida 2020-yilda davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi standartlarini joriy etish (IPSAS) rejalashtirilgan bo'lsa-da, bu jarayon hali to'liq yakunlanmagan. Bundan tashqari, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-357-sonli qarori bilan "Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi"ni yaratish va davlat sektorida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IPSAS) tatbiq etish chora-tadbirlari belgilangan.

Metodologik jihatdan, ushbu maqolada davlat sektorida moliyaviy natijalar auditini takomillashtirish bo'yicha xalqaro standartlar, milliy qonunchilik va mavjud amaliyotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida audit tizimini rivojlantirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.



2-rasm. Xalqaro auditorlik standartlarining qo'llanilish darajasi<sup>2</sup>

Har bir hisob obyektini auditorlik tekshiruvdan o'tkazishdan oldin auditorlik riskini aniqlash zarur. Auditorlik riski moliyaviy hisobotda muhim buzib ko'rsatishlar mavjud bo'lganda auditor tomonidan mos bo'lmagan fikrning berilish riskidir. Auditorlik riski ikki xil bo'lib, mijoz korxonadan tomonidan yo'l qoyiladigan "muhim buzib ko'rsatishlar riski" va auditor tomonidan yo'l qoyiladigan "aniqlanmaslik riski"dir. "Muhim buzib ko'rsatishlar riski" o'z o'rnida ikki turga bo'linadi: "ajralmas risk" va "nazorat vositalari riski". "Aniqlanmaslik riski" ham ikki turni o'z ichiga oladi: "tanlash bilan bog'liq" va "tanlash bilan bog'liq bo'lmagan" aniqlanmaslik riski. Auditorlik riskini hisoblash uchun yuqorida keltirilgan "ajralmas risk", "nazorat vositalari riski" va "aniqlanmaslik riski" ko'rsatkichlari bir-biriga ko'paytiriladi. Shundan so'ng auditni rejalashtirish ishlari amalga oshiriladi. Auditni rejalashtirishda auditorning maqsadi auditorlik tekshiruvini samarali tarzda o'tkazishga imkon beradigan darajada rejalashtirish hisoblanadi. Auditni rejalashtirish ishlari audit strategiyasini belgilash va audit rejasini tuzishni o'z ichiga oladi.


Audit strategiyasi - tekshiruvning yakuniy maqsadiga mijoz uchun eng kam xarajatga tushadigan, ammo har taraflama sifatli tekshiruv o'tkazish orqali erishishdir. Samarali va asosli audit strategiyasini ishlab chiqish auditoridan, mijoz faoliyat yuritayotgan tarmoq bilan yaqindan tanish bo'lishni va audit sohasida chuqur malakaga ega bo'lishni talab etadi. Yirik mijoz uchun audit strategiyasi, odatda, auditorlik firmasi partnyori yoki menejeri tomonidan, o'rta yoki kichik mijoz uchun esa katta auditor

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

tomonidan ishlab chiqilishi mumkin. So'nggi vaziyatda, katta auditor ishlagan strategiya menejer tomonidan o'rganiladi. Tekshiruv strategiyasida audit tekshiruvi uslubiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ham yoritilishi mumkin. Ushbu uslubiyatlarni belgilash jarayonida auditorga, mijozning buxgalteriya ma'lumotlarini tizimlashtirilgan asosda hisobga olinishi juda qo'l keladi. Ma'lumotlarni tizimlashtirilgan holda hisobga olishda (1) operatsiyalar boshlang'ich hisob hujjatlarida qayd etiladi; (2) bu hujjatlardagi ma'lumotlar jurnallarda umumlashtiriladi; (3) jurnal ma'lumotlari tegishli schyotlar debeti va kreditiga kiritiladi; (4) yil yakunida schyotlar balansi asosida moliyaviy hisobotlar tayyorlanadi. Ushbu jarayonga e'tibor bilan qarasa, ma'lumotlarni tekshirish uchun aniq yo'nalish mavjud. Bu yo'nalish korxonada ishtokida yil davomida sodir bo'layotgan minglab operatsiyalarni yakuniy moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlari bilan bog'laydi.

Auditor uchun bu yo'nalishdagi ma'lumotlar oqimini tekshirishning ikki xil uslubiyati mavjud: 1) auditor ma'lum operatsiyalarni boshlang'ich hisob hujjatlarida qayd etilishidan to moliyaviy hisobotlarga kiritilguniga qadar jarayonni o'iganib chiqishi mumkin. Buning natijasida auditor, barcha operatsiyalar to'g'ri va to'liq hisobga olinganiga ishonch hosil qiladi; 2) auditor yakuniy ma'lumotlarni ularni dastlab aks ettirgan hisob hujjatlari yo'nalishi tomon o'rganib chiqishi mumkin. Bunda, moliyaviy hisobotlarning turli elementlarida keltirilgan ma'lumotlarni tekshirishda schyotlar, schyotlardan jurnallar, ulardan esa boshlang'ich hisob hujjatlari tomon yo'nalish tanlanishi muimkin. Shu asosda auditor, moliyaviy hisobotda keltirilgan ma'lumotlar asosli, haqiqatdan ham sodir etilgan operatsiyalar natijasi ekanligiga ishonch hosil qiladi. Keltirilgan yo'nalishlarning har ikkisi ham auditor uchun katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, ular auditning moliyaviy hisobotlar yuzasidan o'z professional fikrini bildirishi uchun yetarli asos bo'la olmaydi. Demak, auditor boshqa uchunchi tarafdin ham daliliy hujjat va ma'lumotlarni to'plashi lozim. Endi, audit rejasini tuzish masalalariga toxtalib otsak maqsadga muvofiq boladi (1-rasm).

Audit rejasini - mijoz faoliyat tarmog'i va audit strategiyasi yuzasidan auditorning umumiy ma'lumotidir. "Moliyaviy hisobotlar auditini rejalashtirish" deb nomlangan 300 AXSga asosan audit rejasida auditorlik tashkiloti auditni o'tkazish muddatlari, hisobot va xulosasini tuzishni nazarda tutishi shart. Audit rejasida, odatda, quyidagilar to'g'risida batafsil ma'lumot keltirilgan bo'ladi: 1) mijoz, haqida umumiy ma'lumot - uning tarkibiy tuzilishi, faoliyat tarmog'i; 2) auditning maqsadi (maxsus maqsadlarni ko'zlagan audit va boshqalar); 3) audit xizmatiga qo'shimcha ravishda boshqa turdagi xizmatlar (soliq, konsalting) ham ko'rsatilishi kutilayotgan bo'lsa, auditning ko'lami; 4) audit tekshiruvini o'tkazish uchun zaruriy vaqt hajmi; 5) mijoz xodimlari tomonidan amanga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar; 6) audit tekshiruvida qatnashadigan xodimlarga nisbatan talablar; 7) audit riski va muhimlik darajasi bo'yicha ma'lumot.



### 3-rasm. Xalqaro auditorlik standartlarining qo'llanilish darajasi<sup>3</sup>

Tekshiruv natijalariga ko'ra, auditor o'z fikrini shakllantiradi, tasdiqlovchi hujjatlarni va auditorlik xulosasini tayyorlaydi, shuningdek buxgalteriyaning tekshirilayotgan bo'limiga tegishli qismni shakllantiradi. Moliyaviy natijalar xo'jalik yurituvchi subyekt uchun juda muhim ko'rsatkich hisoblanadi, chunki ular tashkilot faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradi. Ichki xizmatlar buxgalteriya hisobi va hisobotida doimo moliyaviy natijalarning ishonchli va to'g'ri aks ettirilishi ustidan nazoratni ta'minlay olmaydi, shu sababli tashqi nazorat juda muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va taqdim etish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi biznes-jarayonlarni tekshirishi lozim:

- moliyaviy hisobot uchun ahamiyatli bo'lgan operatsiyalarning to'g'ri turkumlanganligini;

- ham axborot texnologiyalari tizimida, ham ma'lumotlarni qo'lda tayyorlashda moliyaviy natijalar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish, qayd etish, ularga ishlov berish va zarur holda operatsiyalarga tuzatishlar kiritish, ularni bosh

buxgalteriya kitobiga o'tkazish va moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun protseduralar to'g'ri qo'llanilganligini;

<sup>3</sup> Muallif ishlanmasi

- moliyaviy natijalar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish, qayd etish, ularga ishlov berish va ularni umumlashtirish uchun qo'llaniladigan tegishli buxgalteriya hisobi yozuvlari, tasdiqlovchi axborot va moliyaviy hisobotdagi alohida schyotlar to'g'ri yuritilganligi, noto'g'ri axborotga tuzatish kiritilganligi, shuningdek axborot bosh kitobga to'g'ri o'tkazilganligini.

### Xulosa

Davlat sektorida moliyaviy natijalar auditini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Xalqaro standartlarga moslashish, ichki audit tizimini kuchaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali moliyaviy boshqaruvning shaffofligi va samaradorligini oshirish mumkin. Kelgusida ushbu yo'nalishlarda izchil islohotlarni amalga oshirish orqali davlat moliyaviy boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirish mumkin. davlat sektorida moliyaviy natijalari auditini tashkil etishda auditor ma'lum operatsiyalarni boshlang'ich hisob hujjatlarida qayd etilishidan to moliyaviy hisobotlarga kiritilguniga qadar jarayonni o'iganib chiqish uslubiyatini tanlash asosida barcha operatsiyalar to'g'ri va to'liq hisobga olinganiga hamda auditor yakuniy ma'lumotlarni ularni dastlab aks ettirgan hisob hujjatlari yo'nalishi tomon o'rganib chiqishi orqali moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda keltirilgan ma'lumotlar asosli, haqiqatdan ham sodir etilgan operatsiyalar natijasi ekanligiga ishonch hosil qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abdujalilova D. "Davlat sektorida moliyaviy hisob va audit tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatleri", *International Finance and Accounting*, №1, 2024. – B. 17–27.
2. Asian Development Bank. *IPSAS Implementation Road Map for Uzbekistan*. Manila: ADB Publications, 2020. – 48 p.
3. World Bank. *Public Financial Management Performance Report – Uzbekistan*. Washington, D.C.: WB, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-son Farmoni "Ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" // *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi* – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. OECD. *Public Integrity Indicators: Uzbekistan*. Paris: OECD Publishing, 2024.
6. Karimova G.R. "Audit faoliyatining huquqiy asoslari va moliyaviy nazoratda roli", *Moliyaviy tadqiqotlar*, №3, 2023. – B. 45–58.
7. International Monetary Fund. *Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation-Press Release and Staff Report*. IMF Country Report No. 24/173, Washington, 2024.
8. World Journal of Advanced Research and Reviews. "Improving the procedure for compiling and submitting reports on the state budget in accordance with international standards", Vol. 24, Issue 2, 2024.
9. Hisob palatasi rasmiy ma'lumotlari (2023). – [www.sai.uz](http://www.sai.uz)

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

